

**KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARGA EKOLOGIK TA'LIM VA  
TARBIYA BERISHDA INTEGRATIV USLUBLARDAN FOYDALANISH****Nuriddinova Maysara Ikramovna**

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

**Kodirova Albina Faridovna**

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ekologik ta'lim va tarbiya berishda integrativ uslublardan foydalanishning metodik xususiyatlari tahlil etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim va tarbiya berishda tabiiy fanlarining o'rni, o'quvchilarning ekologik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda integrativ uslublardan foydalanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalid so'zlar:** ekologiya, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, metod, og'zaki metodlar, ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlar, kuzatish, ekskursiya, integrativ uslublar.

**THE USE OF INTEGRATIVE METHODS IN PROVIDING  
ENVIRONMENTAL EDUCATION AND UPBRINGING FOR YOUNG  
SCHOOLCHILDREN**

**Abstract:** This article analyzes the methodological features of using integrative approaches in providing ecological education and upbringing in primary school. Information is provided on the role of natural sciences in teaching ecological education and upbringing to primary school students, as well as on using integrative approaches to develop students' ecological knowledge and skills.

**Keywords:** ecology, ecological education, ecological upbringing, method, oral methods, visual methods, practical methods, observation, excursion, integrative approaches.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕГРАТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРОЦЕССЕ  
ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И  
ВОСПИТАНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

**Аннотация:** В данной статье проанализированы методические особенности использования интегративных методов при организации экологического образования и воспитания в начальных классах. Рассмотрена роль естественных наук в формировании экологических знаний у учащихся начальных классов, а также приведены сведения об использовании интегративных методов для развития экологических знаний и навыков учащихся.

**Ключевые слова:** экология, экологическое образование, экологическое воспитание, метод, устные методы, наглядные методы, практические методы, наблюдение, экскурсия, интегративные методы.

**Kirish.** Ma'lumki, ekologik muammolar hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jumladan, ushbu muammolar umumijtimoiy masalalarning ajralmas qismi ekanligini e'tirof etgan holda, keng jamoatchilik oldidagi hal etilishi zarur bo'lgan vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri va asosiysi bu ekologik ta'lim va tarbiya bo'lib, sog'lom avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Sog'lom avlod deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki milliy istiqloq g'oyasi va umumbashariy g'oyalar ruhida tarbiyalangan avlodni tushunamiz.

Insonning tevarak-atrofga bo'lgan o'zaro munosabati esa murakkablashmoqda. Odamlarning o'ta befarq xo'jalik faoliyati natijasida butun biosfera sezilarli darajada o'zgarib, yer yuzidagi jonzod uchun shunday bir muhit yuzaga keldiki, u bugungi kunda o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek odamlarning yashashi uchun zararli bo'lib qolmoqda. Bu holatni qanday barham berish mumkin? Bu savol endilikda katta-kichikni birdek o'ylantirmoqda. Qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassis olimlar, faylasuflar, tarixchilar, geograflar, iqtisodchilar va yozuvchilar, boshqa turli kasb egalari jamiyatda ekologik ahvolni yaxshilashni, kishilarning xo'jalik faoliyatini ekologik talabga moslashtirish uchun harakat qilmoqdalar. Xo'jalik faoliyati bo'yicha qabul etiladigan har qanday qaror kishilarning turmushi, mehnat qilishi uchun yaxshi sharoit yaratilishi, tevarak atrofdagi tabiatni yaxshilashni uzoq yillar davomida ta'minlay oladigan bo'lishi zarurligini uqtirmoqdalar. Shunday ekan, tabiatni muhofaza qilish, uni xarob etilishining oldini olishga qaratilgan axloqiy hatti-harakatlar har qanday yoshdagi kishilarga barobar taalluqlidir[1].

**Mavzuning dolzarbligi:** Ammo, keyingi yillarda tabiatni muhofaza qilish uchun milliardlab mablag' ajratilayotganligiga qaramay bu hali kerakli natijalarni bermayotgani ma'lum. Yerdagi tabiiy manbalarni avaylab asrashda eng muhim yo'l, aholini shu jumladan o'sib borayotgan avlodni tabiatni asrash, muhofaza qilishga doir bilimlardan xabardor etish, ularga ekologik tarbiya berishdir. Hamma tashkilotlarning ta'lim va tarbiya tizimi, fan, adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, shuningdek yoshlar va bolalar uyushmalari boshqa jamoa tashkilotlarining faoliyati tabiatni ko'z qorachig'idek asrashdek ezgu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu ishlarda tabiiy boyliklarni bitmas-tuganmas deb o'ylab, ularni isrof qilish, tabiatga iste'molchilik munosabati nuqtai nazaridan qarashdek noto'g'ri kayfiyatga barham berish lozim[2].

Biroq agar jamiyatimizning har bir a'zosi tabiatni asrashga ongli ravishda qiziqmasa, bu yo'lda amalda oshiriladigan ishlarda faol qatnashmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Har bir fuqaro o'z tashabbusi bilan astoyidil muhofaza qilishni o'rganishi, ona yerimizning aholisi uchun kelajak avlodlar oldida o'z javobgarligini tushunishi lozim, ya'ni yoshlarimizning ekologik madaniyati, ekologik bilimdonligi ona tabiatimizni asrab qolishning asosiy shart sharoitidir.

**Mavzuning tahlili:** Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ekologik madaniyat talablari darajasida hal qila oladigan kishilar avlodini tarbiyalab yetishtirishimiz lozim.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning maqsadi maktab o'quvchilarida atrof-muhitga mas'ullik munosabatini tarkib toptirishni ta'minlovchi ilmiy bilim, qarash va e'tiqodlarni tizimini shakllantirishdan iborat[3].

Ekologik ta'lim va tarbiya quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

o'quvchilarni tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash;

jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar, shuningdek insonga xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri oqibatida yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar haqida bilim berish;

o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldidagi mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi.

Tabiatning sodiq himoyachilarini tarbiyalash uchun boshlang'ich sinf bolalari bilan quyidagi yo'nalishda ish olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz:

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiat olami, undagi voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida muayyan bilimlar berish.

Bolalarda tabiat, uni muhofaza qilish, boyitishga yo'naltirilgan qizg'in faoliyatni shakllantirish.

Bolalarni doimiy ravishda mustaqil davlatimizning tabiatni qo'riqlash, uni avaylab asrash bo'yicha olib borilayotgan ishlari bilan tanishtirib borish lozim [4].

**Metodlar:** O'quvchini tabiat bilan tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o'rgatish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabning eng muhim vazifalaridan biridir. Maktablarda o'quvchilarning tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlardan.

Og'zaki metodlar – o'qituvchining materialni og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash;

Ko'rgazmali metodlar – namoyish qilish, ekskursiyalar, mustaqil kuzatishlar;

Amaliy metodlar – og'zaki va yozma mashqlar, chizma va laboratoriya ishlari hamda metodik uslublaridan;

Kuzatish va ekskursiyadan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiyani amalga oshirish, avvalo o'quvchilarni tabiatdagi hamma hodisalar o'zaro bog'liq bo'lgan, tabiiy qonuniyatlar asosida yuz berishini o'qitish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasida bo'lib o'tadigan munosabatlar sirlarini o'rganish yo'li bilan birga olib boriladi. Bunda boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "Tabiiy fanlar" (1–4 sinflarda) o'qitiladigan fanlarining o'rni beqiyosdir. Bu uchun o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchisini tabiat hodisalari va qonunlari bilan tanishtirishda, ularda narsa va hodisalar, jonli va jonsiz tabiat va tirik organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga tegishli bilimlarni yetkazishda har xil pedagogik usullardan foydalanish bilan birgalikda, bu bilimlarni bola yoshiga qarab ommabop tarzda bayon qilish metodikasi bilan ham qurollangan bo'lishi kerak[5].

Har tomonlama mukammal shaxsni kamol toptirish uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lganidek, o'quvchilarga ekologik tarbiya berish ham juda muhim ta'limiy vazifa sanaladi. Shu sababli, bu faoliyatni o'quvchi maktabga ilk qadam qo'ygan chog'idan – birinchi sinfdan boshlashimiz zarur. 1–4-sinf o'quvchilarining tabiat qo'yniga uyushtirilgan sayr va sayohatlar vaqtida daraxtlarning turli-tumanligiga, ularning tana po'stloqlariga, barglardagi tafovutlarga diqqatini jalb qilish lozim. Masalan: Bolalar bahor faslida tabiatni uyg'onishi, daraxtlarning kurtak chiqarishi, gullashi, barg yozishi, maysalar, o't-o'lanlarning sabza urishi, tabiatning yashil libosga burkanishi, yozda har xil mevalarning pishib yetilishi, kuzda esa daraxt barglarining sarg'ayishini biladilar. O'quvchilar tabiat qo'yniga sayr qilish bilan daraxtlarning soyasi, gullarning muattar, mayin va nihoyat yashil do'stlarimizning havoni tozalab berishi haqidagi tushunchalarga ham ega bo'ladilar. Sayrga chiqishdan oldin o'quvchilar tabiat hodisalari, oy, quyosh haqidagi she'rlar va topishmoqlarni takrorlaydilar.

Masalan, quyidagi *topishmoqlarni*: a) U yoqqanda dala qir, Kuladi qiqir-qiqir (yomg'ir). b) Qo'lsiz oyoqsiz eshik ochar (shamol). v) Tilla sandiq ochildi, Ichidan zar sochildi (quyosh). *She'rlar ham aytadilar*: Tabiat – yerimizdir, Asramoq burchimizdir. Suv bor joyda bordir hayot, Uni teja, qil ehtiyot. Inson olamga kelgandan so'ng tabiat ehsonidan bahramand bo'ladi. Ona bolani tarbiyalasa, tabiat uni o'stiradi, voyaga yetkazadi. Ona tabiat deb bejiz aytilmaydi. Maktab gulzoriga sayr davomida o'quvchi mehri turli gullarga tushib, go'zallikni his qiladilar. Sayohat darslarining yanada ta'sirchan bo'lishi uchun didaktik o'yinlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir[6].

*Masalan: "Gul bazmi" o'yini.* O'quvchilar gul haqida she'r aytib o'yinni davom ettiradilar. Har bir o'quvchi navbat bilan gul haqida she'r aytadi. Gul, gul, gul, gulga qarab kul, Ona bilan lola – gul bilan bola.

O'qituvchi turli barglardan yasalgan shakllarni tartib raqami bo'yicha terib chiqadi. Kichik guruhlarda taqdimot o'tkaziladi. O'quvchilar tabiat, atrof muhit muhofazasi haqidagi hikmatli so'zlarni bilib oladilar. Berilgan kataklar bo'yicha

harflarni joylashtirib chiqilgach, quyidagi ekologik bilim va tushunchalar: *Ona tabiat, qushlar bizning do'stimiz* kabi gaplar hosil bo'ladi.

Dars davomida o'quvchilar bilan quyidagi savol-javoblarni o'tkazishimiz mumkin: Danakli mevalar nomini ayting? Danaksiz mevalar nomini ayting? So'ngra tabiatga doir topishmoqlar beriladi. Yerdan asta unadi, Ilk bahorda kuladi (boychechak). Ikki yaproq bir tanda, Kezar yozda chamanda (kapalak).

Bu o'yinlar o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishga va og'zaki nutqni o'stirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilar qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg'otishga yordam beradi. Tabiat qo'ynida bo'lgan sayr o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bular: Boshlang'ich sinflardagi ta'lim va tarbiya jarayonlari kichik yoshdagi maktab o'quvchisi shaxsining quyidagi psixologik xossalari: tabiat bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini, tabiatning har tomonlama qadr-qimmatini anglab olishga yo'naltirilgan faoliyat motivlarini, tabiatni qo'riqlash, o'zining va jamiyat barcha a'zolarining sihat-salomatligini saqlash zarurligiga bo'lgan ishonchni, tabiatni o'rganish va muhofaza qilish mehnatida ishtirok qilish va ekologik g'oyalarni targ'ib qilish ehtiyojini[7].

Ta'limiy vazifalar esa quyidagilarni shakllantirishni ko'zlaydi, inson, jamiyat va tabiat birligi haqidagi eng sodda ekologik bilimlar tizimini, mafkuraviy, jamiyat va tabiat birligi haqidagi eng sodda ekologik bilimlar tizimini, o'z xulq-atvorida tabiatga munosabatning ma'naviy va huquqiy tamoyillari, me'yor va qoidalaridan foydalanish ko'nikmalarini, ijtimoiy foydali mehnat va targ'ibotchilik faoliyatida tabiatni muhofaza qilish va unga nisbatan ehtiyotkorlik munosabatida bo'lish usullari haqidagi bilimlardan foydalana olish ko'nikmalarini.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'ullikni shakllantirishga ta'sir qiluvchi ekologik e'tiqodning uch asosiy tarkibiy qismi farqlanadi:

intellektual (aqliy) – boshlang'ich ekologik bilimlar va dunyoqarash xarakteridagi aqliy malakalar, oddiy ekologik tafakkur usullarining egallanishi;

shaxsiy – dastlabki ijtimoiy ekologik faoliyat motivlari, atrof-muhitga bo'lgan munosabat va uni baholash, tabiatni muhofaza qilish zarurligini, ekologik xavfni bartaraf qilishga ishonch, ichki tayyorgarlik – ekologik muvozanatni buzmaslik va tabiatni muhofaza qilish istagi, ekologik (tabiatni muhofaza qilish) faoliyatida va xatti-harakatlarida o'z nuqtai nazarini amalga oshirish ehtiyoji.

Mana shu 3 tarkibiy qism boshlang'ich sinf o'quvchilarida muayyan darajada ekologik e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi.

**Xulosalar:** Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda ekologik bilim va tushunchalarni tarbiyalashda ekologik tarbiyaga oid keng va qiziqarli ishlarni amalga oshirish mumkin. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani dars jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida va o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash jarayonida uzviy bog'lab olib borilsa,

kuzatilgan maqsadga erishiladi. Bu esa ekologik tarbiya berishdagi integrativ jarayonning asosiy negizini tashkil etadi.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning maqsadi maktab o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyat munosabatini tarkib toptiruvchi ilmiy bilim, qarash va e'tiqodlarni tizimini shakllantirishdan iborat, deb ta'kidlash mumkin. Turli xil kechalar, uchrashuvlar, musobaqalar, ko'rgazmalar o'tkazish va tashkil qilish, o'lka tabiatiga sayrlar uyushtirish va natijalardan, taassurotlardan kelib chiqib, rasmlar ko'rigi o'tkazish, insholar yozish va tajriba ishlarini olib borish ayni muddaodir.

Bular hammasi integrativ jarayonlar asosida amalga oshiriladi, ya'ni tabiiy fanlar, ona tili, o'qish, rasm, mehnat va hokazo fanlar bilan bog'langan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, turli metodlar va dars shakllarining bir-biridagi integrativ holatlarini ham ko'rsatib o'tish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Nigmatov A. N. Ekologiya asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2013.
3. Nuriddinova M.I. – Tabiatshunoslikni o'qitishning uslub va shakllari. Samarqand, 2019 (uslubiy qo'llanma).
4. Nuriddinova M.I. va Abdimuminova G. - Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslari jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishda integratsion usullardan foydalanish. "Ta'lim va texnologiya". Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. 1U-qism, T: 2015.
5. Nuriddinova M.I. - Ekologicheskoe vospitanie mladshikh shkolnikov na urokakh prirodovedeniya v nachal'nykh klassakh. "Ta'limda innovatsiyalar: strategiya, nazariya va amaliyot". Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami, 11 qism, Samarqand, 2018.
6. Sodiqova Sh. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish. – Toshkent, 2018.
7. Turdiqulov E. O. Atrof-muhit va inson. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
8. Mirziyoyev M. A. Boshlang'ich sinf darslarida integrativ yondashuvni qo'llash texnologiyalari // Pedagogika jurnali, 2021.
9. Tursunova R. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning innovatsion usullari. // *Zamonaviy ta'lim*, 2020.
10. Nikolaeva S.N. Teoriya i metodika ekologicheskogo obrazovaniya detey. – Moskva: Akademiya, 2011.